



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

BUYRUQ

2025-yil "25" yanvar № 174-T

Samarqand shahar

**"Qalqon" jamoatchilik guruhi faoliyatini
takomillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvatlash bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 59-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi (27.12.2024 19-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (28.12.2024 50-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (28.12.2024 33-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (27.12.2024 01-07/36-q/q son), O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashi (27.12.2024 16-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalari beshligi"ni tashkil etish hamda "Qalqon" jamoatchilik guruhi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 55-q/q-sonli qo'shma qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-yanvardagi 3/15-4/1-9669/1-sonli xatida belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha direktor o'rinbosarlari (X.I.Turdibekov, F.B.Axrorov, Z.H.Abdullayev), fakultet dekanlari (G'A.Ibragimov, A.B.Taniyev), bo'lim boshliqlari hamda kafedra mudirlariga:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi (27.12.2024 19-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (28.12.2024 50-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (28.12.2024 33-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (27.12.2024 01-07/36-q/q son) O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashi (27.12.2024 16-q/q son), O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-dekabrda

"Oliy ta'lim muassasalarida "Oliy ta'lim muassasasi beshligi"ni tashkil etish hamda "Qalqon" jamoatchilik guruhi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 55-q/q-sonli qo'shma qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-yanvardagi 3/15-4/1-9669/1-sonli xatida belgilangan vazifalar ijro uchun qabul qilinsin.

1.2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida "Oliy ta'lim muassasasi beshligi"ni tashkil etish hamda "Qalqon" jamoatchilik guruhi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 55-q/q-sonli qo'shma qarori bilan:

- Oliy ta'lim muassasalarida "Oliy ta'lim muassasasi beshligi"ni tashkil etish xamda "Qalqon" jamoatchilik guruhlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha Nizomi;

- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Qalqon" jamoatchilik guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi tarkibi;

- Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini o'quv yili davomida amalga oshiradigan namunaviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

1.3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 55-Q/Q-sonli qo'shma qarori bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida 10-20 nafardan iborat "Qalqon" jamoatchilik guruhi sardori va guruh a'zolariga qayta saylovlar tashkil etilsin.

1.4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida "Qalqon" jamoatchilik guruhini tashkil etish to'g'risida Nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

1.5. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali qoshidagi "Qalqon" jamoatchilik guruhini tashkil etish hamda takomillashtirish to'g'risidagi nizomi, mas'uliyati, maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlari bilan talabalar va filial jamoasi tanishtirilsin (Mas'ul: T.Yuldashev, F.Toshpo'latov).

1.6. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali qoshidagi "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zolariga O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining 2024-yil 26-dekabrda 55-Q/Q sonli qo'shma qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-yanvar 3/15-4/1-9669/1-sonli xati 9-bob 10-xatboshiga asosan stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foizgacha miqdorda qo'shimcha haq to'lab borish bo'yicha filial imkoniyatidan kelib chiqib taklif kiritilsin (Mas'ul: T.Yuldashev, R.Eshaliyev).

1.7. "Qalqon" jamoatchilik guruhi rahbari tomonidan jamoatchilik guruhi a'zolarining grafik asosida ish rejaları ishlab chiqilsin va tasdiqlashga kiritilsin. (Mas'ul: T.Yuldashev, F.Toshpo'latov).

1.8. "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zolari belgilangan nizomga asosan ishlar tashkil etilsin. Bunda, muddatli harbiy xizmatni o'tagan a'lo va yaxshi baholarga o'qiyotgan, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan fidoiy yoshlar hamda ta'lim

muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar ichidan tanlab olinsin. (Mas'ul: T.Yuldashev, F.Toshpo'latov)


1.9. "Qalqon" jamoatchilik guruhlari a'zolarini maxsus ajratuvchi belgilarga ega bo'lgan mavsumiy kiyim (forma) va oliy ta'lim filialning direktori tomonidan imzolangan holda a'zolik guvohnomalari bilan ta'minlab borilsin. (Mas'ul: T.Yuldashev, F.Toshpo'latov).

1.10. "Qalqon" jamoatchilik guruhlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-dekabrdagi 55-Q/Q-sonli qo'shma qarorning mazmun-mohiyatini keng targ'ibot qilish hamda faoliyatini ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralari ko'rilsin. (Mas'ul: T.Yuldashev, P.Amriddinova, F.Toshpo'latov).

2. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Asos: 2024-yil 26-dekabrdagi 55-Q/Q-sonli qo'shma qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-yanvardagi 3/15-4/1-9669/1-sonli xati.

Direktor
Asliga to'g'ri



O.Murtazayev
Abduraxmanova